CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXTAMOVA LAZIZA AZAM QIZI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘ZI-TEKSHIRUVCHI TIZIMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06-Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

UO‘K: 378.091.33:378.147

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Axtamova Laziza Azam qizi
Raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish 3

Ахтамова Лазиза Азам кизи
Организация практических занятий в цифровой образовательной среде на основе само-проверяющих систем и совершенствование методики преподавания 21

Akhtamova Laziza Azam kizi
Organization of practical classes in a digital educational environment based on self-checking systems and improvement of teaching methodology.....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 48

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

AXTAMOVA LAZIZA AZAM QIZI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA AMALIY MASHG‘ULOTLARNI O‘ZI-TEKSHIRUVCHI TIZIMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06-Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Ped12443-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertastiya ishi Buxoro davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.cspu.uz Ilmiy-kengash) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Xudoyberganov Mirzoali O‘razaliyevich,** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdullayev Botir Baxtiyor o‘g‘li** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Eshimov Raxmon Rustamovich pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli ilmiy kengashning 2026 yil "20" 11 soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104 uy. Tel.: +99871-712-27-55; faks:+99871-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (557 raqam bilan ro‘yxatga olingan. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104 uy. Tel.: +99871-712-27-55; faks: +99871-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil "06" 11 da tarqatildi.
(2026 yil "06" 11 dagi № 43 raqamli reestr bayonnomasi)

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertastiyasi annotastiyasi)

Dissertastiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga chuqur integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. Sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va katta hajmli ma’lumotlar tahlili kabi ilg‘or yo‘nalishlar pedagogik jarayonlarni optimallashtirish, ta’lim sifatini oshirish va har bir talaba uchun individual yondashuvni ta’minlashda keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda teskari aloqaning ta’lim samaradorligiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi va uning rivojlanishdagi markaziy roli asoslangan bo‘lib, bu omillar raqamli o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni nafaqat texnik yordamchi vosita, balki yaxlit didaktik mexanizm sifatida talqin etishni taqozo etmoqda. Xususan, talabalarning dasturlashga oid amaliy ko‘nikmalarini baholashda an’anaviy usullarning vaqt talab etishi avtomatlashtirilgan tizimlarga bo‘lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Shu nuqtai nazardan, amaliy topshiriqlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biridir.

Dunyoning yetakchi universitetlari va ta’lim platformalari Coursera, edX, LeetCode (AQSh), Stepik (Rossiya), Swayam (Hindiston), FutureLearn (Buyuk Britaniya) amaliy topshiriqlarni avtomatik tekshiruvchi tizimlardan keng foydalanadi. Bu tizimlar talabalarga o‘z bilimlarini tezkor sinab ko‘rish, xatolarini tahlil qilish va takroriy urinishlar orqali ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini beradi. Pedagogikaga oid xalqaro tadqiqotlarda mazkur platformalarda joriy etilgan avtomatlashtirilgan baholash metodikasining talaba o‘quv faolligini oshirish va o‘zaro ta’sirini boyitishdagi didaktik samaradorligi statistik jihatdan asoslab berilgan. Biroq, mavjud tizimlarning aksariyati faqat natijaning to‘g‘riligini tekshirish bilan cheklanadi. Talabaning yechimga kelish jarayonini tahlil qilish va unga moslashtirilgan tavsiyalar berish kabi murakkab vazifalarni bajaruvchi intellektual tizimlar hali ham tadqiqot bosqichida. Aynan shu nuqtada texnologik imkoniyat bilan pedagogik zarurat o‘rtasida katta bo‘shliq mavjud bo‘lib, uni bartaraf etish mazkur dissertatsiya tadqiqotining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi.

Mamlakatimizda ham ta’lim tizimini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha izchil va keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ–358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida “…bilim sifatini baholashni avtomatlashtirish va o‘quv natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, dasturlash tillari va sun’iy intellektni o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirish”[1] vazifalari belgilab berilgan. Mazkur me’yoriy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish va raqamli ta’limning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlariga moslashtirilgan metodik yondashuvlarni shakllantirishni dolzarb ilmiy vazifaga aylantirmoqda. Bu esa o‘z navbatida raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish bilan bog‘liq dissertatsiya mavzusining dolzarbligini bevosita belgilab beradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.10.2024-y., 07/24/358/0825-son

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 10-dekabrdagi PQ-42-son “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 31-avgustdagi 556-son “Axborot texnologiyalari va kompyuter dasturlash sohasida yosh mutaxassislarni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ilmiy-tadqiqot ishlari va adabiyotlar manbalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimiz olimlari raqamli ta’lim, avtomatlashtirilgan baholash va o‘zi-tekshiruvchi tizimlarga oid keng qamrovli izlanishlar olib borgan. M.R.Fayziyeva, D.N.Mamatov, Sh.O.Mirzayev va I.U.Nazarov raqamli ta’lim muhitlarini loyihalashni tadqiq etishgan bo‘lsa, N.A.Kayumova, R.B.Sariyev, R.Q.Mallayev, Sh.A.Bobomuxamedova va Sh.K.Xudayberdiyev dasturlash tillarini o‘qitishning metodik tizimlarini tahlil etgan. F.V.Xalilov, B.M.Suropov, P.E.Nuraliyeva, O.E.Mamarajabov va B.J.Xoliqulov intellektual va raqamli vositalar yordamida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalarini, B.O.Raximov, M.S.Islomova, R.Xoshimov va B.Jo‘rayev esa bevosita o‘zi-tekshiruvchi va avtomatlashtirilgan baholash tizimlariga oid izlanishlarni olib borgan.

MDH davlatlari olimlaridan D.E.Dasheyeva, D.V.Irtegov, I.Yu.Gladkix, I.V.Kuznetsov hamda L.V.Gorchakov dasturlashga oid topshiriqlarni avtomatik baholash tizimlarinini, Yu.B.Popova, Yu.V.Kovalenko avtomatik tekshiruv tizimlari orqali talabalar mustaqilligini oshirish metodikasini, Y.Mukhanov, D.Kozhamzharova va M.S.Bekbolatova esa masofaviy ta’limda avtomatik baholash modellari hamda talabalarning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni tadqiq etgan. Elektron ta’limning didaktik tamoyillari va muammoli o‘qitish masalalari

A.K.Belolutskaya, A.A.Gubanova hamda I.A.Emelyanova ishlarida tahlil qilingan.

Xorijiy olimlardan raqamli ta’lim muhitida o‘zi-tekshiruvchi tizimlar va avtomatlashtirilgan baholash metodikasiga oid muammolarni K.VanLehn, V.Aleven, K.Koedinger, M.Bernacki, P.Black, D.Wiliam, D.R.Sadler, J.Hattie, D.Nicol va V.Shute tadqiq etgan bo‘lsa, M.Knowles, B.Zimmerman, D.Boud, E.Panadero hamda S.Rashid o‘rganib, o‘z-o‘zini baholash metodologiyasi sohasida fundamental natijalarga erishgan. Dasturlash ta’limida avtomatlashtirilgan baholash va teskari aloqa metodikasi K.Ala-Mutka, M.Messer, N.Brown, P.Ihantola, J.Paiva, H.Keuning va P.Denny tomonidan tizimli sharhlangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari va manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim muhitida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni avtomatlashtirilgan baholash bilan yaxlit tizimga birlashtirgan metodikani ishlab chiqish masalalari hali to‘liq o‘rganilmagan. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti aynan shu ilmiy bo‘shliqni bartaraf etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Tadqiqotning dissertastiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat texnika universitetida Erasmus+ dasturi doirasidagi “Markaziy Osiyoda BigData Intelligent Analysis bo‘yicha o‘quv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish” mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning mustaqil izlanish va raqamli ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirishga qaratilgan funksional tamoyillarini belgilash va tarkibiy komponentlarini aniqlashtirish;

talabalarning ixtisoslik modullari bo‘yicha akademik-raqamli faoliyatini inversiv nazorat va qayta aloqa vositasida tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish;

amaliy mashg‘ulotda o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish modelida talabalarning mustaqil-izlanuvchi pozitsiyasi barqarorligini ta’minlovchi raqamli o‘quv-metodik majmuani modifikatsiyalash;

talabalarning kasbiy rivojlanishida o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanishning samaradorligini modifikatsion raqamli elementlarni pedagogik tavsiflash va takomillashtirish asosida dalillash.

Tadqiqotning obyekti raqamli ta’lim muhitida o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish va dasturlashga oid fanlarni o‘qitish jarayoni hisoblanib, Buxoro davlat texnika universiteti, Guliston davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti kabi oliy ta’lim muassasalaridan jami 526 nafar talaba tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari ishning nazariy qismida tizimli tahlil va abstrakt

mantiqiy fikrlash, pedagogik va psixologik adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish, xorijiy va mahalliy tajribani qiyosiy tahlil qilish va ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini mavjud yondashuvlar bilan taqqoslashda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning mustaqil izlanish, raqamli ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirishga qaratilgan interaktiv kontent va mustaqil diagnostika komponentlari yagona raqamli ta’lim platformasi kontentida ta’limning individuallashtirish tamoyiliga ustuvorlik berish asosida aniqlashtirilgan;

talabalarning ixtisoslik modullari bo‘yicha akademik-raqamli faoliyatini inversiv nazorat va qayta aloqa vositasida tashkil etish mexanizmlari o‘zlashtirish va qo‘llash intervalini qisqartirishga qaratilgan o‘quv yuklamani mikromodullar, amaliy keyslarga refleksiv qulayligiga ko‘ra differensial taqsimlash asosida takomillashtirilgan;

o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish modelida mustaqil-izlanuvchilik pozitsiyasi barqarorligini ta’minlovchi o‘quv-metodik majmua raqamli topshiriqlar, mustaqil keyslarda o‘quv-biluv, amaliy harakatlar nazoratini o‘zini o‘zi tuzatishga yo‘naltiruvchi avtomatlashtirilgan algoritmlarni shaxsiy ta’lim trayektoriyasiga muvofiq optimallashtirish asosida modifikatsiyalangan;

talabalarning kasbiy rivojlanishida o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanishning samaradorligi xatolar ustida ishlashning avtomatik qaydli va motivatsion-rag‘batlantiruvchi elementlarini pedagogik tavsiflash va tizimli sintezlikda adaptiv qo‘llash asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot davomida o‘zi-tekshiruvchi tizimning tuzilma modeli hamda xizmat ko‘rsatish darajasiga tayanadigan boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilib, LMS plagini yaratishda foydalanilgan va u talaba-tizim o‘rtasida kechadigan ma’lumot almashishning aniqligi, tezligi va xatolikka chidamliligini yaxshilash imkonini yaratgan;

Talabalarning dasturlashga oid bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun teskari aloqa mexanizmlariga ega o‘zi-tekshiruvchi tizim yaratilib foydalanishga tatbiq etilgan hamda tajriba-sinov ishlari amalga oshirilgan va natijalar tahlili asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Amaliy topshiriqlarni avtomatik tahlil qilishning ko‘p-bosqichli moduli ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan holda, talabaning dastur kodi yoki javobini avtomatik tahlil qilish, natijalarni baholash va xatoliklarni aniqlash bo‘yicha konstruktiv diagnostik tavsiyalar berish imkoniyati yaratilgan;

Dasturlashga oid amaliy mashg‘ulotlarni avtomatik baholash uchun gibrid aloqa paradigmalari va SLO-driven orkestratsiya asosida ishlaydigan ACC 1 o‘zi-tekshiruvchi dasturiy moduli ishlab chiqilib, MOODLE ta’lim platformasiga integratsiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuv usullari va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy natijalar muayyan tadqiqot usullari asosida aniqlanganligi hamda ko‘p sonli ilmiy maqolalarda o‘z aksini topganligi, respublika vakolatli tashkilotlarida amaliyotga

joriy etilganligi haqidagi dalolatnomalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirishning yaxlit pedagogik-metodik modeli ishlab chiqilgani, ushbu modelning didaktik komponentlari ilmiy jihatdan asoslangani, amaliy mashg‘ulotlarni tahlil etishning ko‘p bosqichli pedagogik diagnostika mexanizmi metodologik jihatdan ishlab chiqilgani, shuningdek, o‘zi-tekshiruvchi tizimlarning didaktik kategoriya sifatidagi pedagogik talqini ilmiy asoslab berilgani bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotda taklif etilgan pedagogik-metodik model, didaktik mexanizmlar va metodik tavsiyalardan dasturlashga oid amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, Moodle ta’lim platformasiga integratsiyalashgan o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni mahalliy oliy ta’lim muassasalarida joriy etish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish kurslari uchun raqamli ta’lim metodikasi bo‘yicha o‘quv kontentini yaratish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlanish dinamikasini pedagogik diagnostika qilish, namunaviy dars ishlanmalarini ishlab chiqish hamda boshqa yo‘nalishidagi amaliy mashg‘ulotlarni pedagogik-metodik jihatdan takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarda foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va o‘qitish metodikasini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

talabalarning ixtisoslik modullari bo‘yicha akademik-raqamli faoliyatini inversiv nazorat va qayta aloqa vositasida tashkil etish mexanizmlari o‘zlashtirish va qo‘llash intervalini qisqartirishga qaratilgan o‘quv yuklamani mikromodullar, amaliy keyslarga differensial taqsimlash asosida takomillashtirishga doir takliflar “Rastrli grafika asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 09-iyuldagi 258-sonli buyrug‘i asosidagi 896108-sonli guvohnomasi). Natijada talabalarning dasturlashga oid bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish va qo‘llash intervalini qisqartirishga erishilgan;

o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish modelida mustaqil-izlanuvchilik pozitsiyasi barqarorligini ta’minlovchi o‘quv-metodik majmua raqamli topshiriqlar, mustaqil keyslarda o‘quv-biluv, amaliy harakatlar nazoratini o‘zini o‘zi tuzatishga yo‘naltiruvchi avtomatlashtirilgan algoritmlarni shaxsiy ta’lim trayektoriyasiga muvofiq optimallashtirish asosida modifikatsiyalashga oid tavsiyalardan 2023-2025 yillarda Buxoro davlat texnika universitetidagi “Erasmus+ dasturi doirasida O‘zbekistonda tibbiyot muhandisligi sohasida yangi magistratura va o‘quv kurslari dasturlari” mavzusidagi xalqaro amaliy tadqiqot loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi”ning 2026-yil 09-apreldagi 02/01-01-236-sonli ma’lumotnomasi). Natijada bo‘lajak mutaxassislarning o‘zini o‘zi nazorat qilish va xatolarni tezkor tuzatish imkoni yaratilib, dasturlashga oid amaliy ko‘nikmalari rivojlantirishga sharoit yaratilgan;

talabalarning kasbiy rivojlanishida o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan

foydalanishning samaradorligi xatolar ustida ishlashning avtomatik qaydli va motivatsion-rag‘batlantiruvchi elementlarini pedagogik tavsiflash va tizimli sintezlikda adaptiv qo‘llashga oid tavsiyalardan 2019-2022 yillarda Buxoro davlat texnika universitetidagi AIF 2/20 - “Texnik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida shaxsga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar asosida malakali muhandislarni tayyorlash sifatini va o‘qituvchilar malakasini oshirish” mavzusidagi xalqaro grant loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi”ning 2026-yil 09-apreldagi 02/01-01-236-sonli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarda xatolar ustida ishlashning avtomatik qaydli imkoniyati yaratilib, o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertastiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligining 4 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertastiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertastiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarblik darajasi va uni o‘rganish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, tadqiqotning O‘zbekistondagi fan va texnologiyalar taraqqiyotining strategik yo‘nalishlariga hamohangligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu qismda tadqiqotning maqsadi, unga erishish uchun belgilangan vazifalar, shuningdek, ishning obyekti va predmeti aniq tavsiflangan. Olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi dalillanib, ishning ilmiy yangiligi hamda uning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Bundan tashqari, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, sinov-tajriba ishlari, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon qilingan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Raqamli ta’lim muhitida amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning nazariy va metodologik asoslari**” deb nomlanib, unda raqamli ta’lim muhitida o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish zarurati, amaliy mashg‘ulotlarda o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni tatbiq etishning ahamiyati va pedagogik imkoniyatlari, ta’lim jarayonida axborot almashish va o‘zi-tekshiruvchi tizimlarning didaktik tamoyillari batafsil yoritiladi. Amaliy topshiriqlarni tekshirishni avtomatlashtirish o‘qituvchi yuklamasini kamaytiradi, baholashning izchilligi va shaffofligini oshiradi, shuningdek an’anaviy subyektiv baholash o‘rniga texnik metrikalar asosida obyektiv konsistensiya ko‘rsatkichlarini joriy etish imkonini beradi. Tizim avtomatik ravishda kodni sintaktik tahlil, semantik tekshiruv, unit-test sinovlari va resurs profiling kabi ko‘p bosqichli

tekshiruvdan o‘tkazadi. Shu orqali kodning mantiqiy to‘g‘riligi, natijaviyligi va algoritmik samaradorligi aniqlanadi. Tizim talabalarga real vaqt rejimida tezkor qayta aloqani ta’minlab, xatolarini tushunish va tuzatish jarayonini tezlashtiradi. Natijada talabalar o‘z dasturiy kodlarini iterativ tarzda yaxshilash va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xalqaro ilmiy hamjamiyatda o‘zi-tekshiruvchi tizimlar sohasidagi tadqiqotlar ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanib kelmoqda. Birinchi va metodologik jihatdan markaziy yo‘nalish - pedagogik-psixologik yo‘nalish bo‘lib, u mazkur tizimlarning talabalardagi kognitiv jarayonlarga, motivatsiyaga, o‘z-o‘zini tartibga solish va metakognitsiyaga didaktik ta’sirini o‘rganadi. Ikkinchi yo‘nalish - texnik-algoritmik yo‘nalish bo‘lib, u avtomatik baholash algoritmlarini, mashinali o‘qitish va tabiiy tilni qayta ishlaah imkoniyatlarini ta’lim muhitida qo‘llashga qaratilgan.

Scopus va Web of Science bazalarida o‘tkazilgan bibliometrik tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zi-tekshiruvchi tizimlar mavzusidagi nashrlar soni o‘sib borayotgan bo‘lsada O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi bu statistikada juda kam ulushga ega[2]. Mahalliy dissertatsiyalar tahliliga asoslanib, mavjud ishlarda yoki tizimning texnik implementatsiyasiga, yoki uning umumiy pedagogik ta’siriga e’tibor qaratilganligini ta’kidlash mumkin. Biroq, dasturlashga oid amaliy mashg‘ulotlarning o‘ziga xos didaktik talablariga moslashtirilgan, katta guruhlar, mintaqaviy infratuzilma cheklovlari va mahalliy pedagogik muhit sharoitlarini hisobga olgan kompleks metodikaga ehtiyoj bor. Dissertatsiya tadqiqoti aynan shu ilmiy bo‘shliqni xalqaro amaliyot va mahalliy pedagogik kontekst o‘rtasidagi metodologik ko‘prik yaratish ehtiyojini asosiy muammo sifatida belgilaydi va o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanishning nafaqat texnologik, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy zaruratini ilmiy asoslab beradi.

Shu bilan birga tadqiqotda amaliy mashg‘ulotlarda o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni tatbiq etishning didaktik imkoniyatlari va pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan asoslanadi. O‘zi-tekshiruvchi tizimlarning an’anaviy baholash usullaridan ustunligi qiyosiy jadval asosida ko‘rsatilib, asosiy afzalliklar sifatida teskari aloqaning real vaqtda berilishi, baholashning obyektivligi, ko‘p oqimli rejimda parallel topshiriqlarni barqaror ko‘taruvchi masshtablilik va o‘qituvchi qo‘lda baholash vaqtini qisqartirish imkoniyatlari aniqlandi. Xalqaro tadqiqotlar asosida o‘zi-tekshiruvchi tizimlarning raqamli ta’lim muhitidagi didaktik funksiyalarini tizimli ko‘rinishda umumlashtirib, ularning pedagogik vazifalarini va nazariy-empirik asoslari keltirildi.

Bizning nuqtai nazardan, o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni amaliy mashg‘ulotlar kontekstida talqin etishda metodologik jihatdan ikki yondashuvni aniq farqlash zaruriyati mavjud. Birinchi yondashuv - o‘zi-tekshiruvchi tizimni avtomatik baholash quroli sifatida ko‘rib, uning asosiy vazifasini ta’lim jarayonida qo‘lda bajariladigan baholash mehnatini kamaytirishga olib boradi. Bunday yondashuv ko‘pincha informatika va dasturiy injiniring sohalaridagi tadqiqotlarda namoyon bo‘ladi va o‘zi-tekshiruvchi tizimni asosan instrumental vosita sifatida talqin qiladi. Ikkinchi yondashuv - tadqiqotimizda asosiy metodologik pozitsiya sifatida

[2] *Muallifning ushbu bazalar doirasida olib borgan tadqiqoti bo‘yicha statistika.

tanlangan didaktik yondashuv bo‘lib, o‘zi-tekshiruvchi tizimni amaliy mashg‘ulotlar metodikasining ajralmas pedagogik komponenti sifatida talqin qiladi va uning markaziga talabaning bilim va ko‘nikmalari rivojlanishini diagnostika qilish, shakllantiruvchi pedagogik teskari aloqani ta’minlash, o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘qituvchining pedagogik fasilitatorlik rolini boyitish kabi didaktik vazifalarni qo‘yadi.


Mavzuga oid ilmiy izlanishlar mazmunida keltirilgan fikrlar va o‘zi-tekshiruvchi tizim ta’limiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, tadqiqot ishida o‘zi-tekshiruvchi tizimlar - bu raqamli ta’lim muhitida talabalarning amaliy yechimlarini avtomatik tekshiruvchi, natijalarni tezkor pedagogik teskari aloqa asosida baholovchi hamda bilim va ko‘nikmalar rivojlanishini monitoring qiluvchi pedagogik-texnologik tizim bo‘lib, u o‘quv jarayonini individuallashtirish va o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi deb ta’riflandi.

Ushbu ta’rifning didaktik xususiyati shundaki, u o‘zi-tekshiruvchi tizimni axborot-texnologik kompleks sifatida emas, balki pedagogik-metodik mexanizm sifatida talqin qiladi va uning markaziga didaktik vazifalarni - diagnostika, shakllantiruvchi teskari aloqa, monitoring, qo‘llab-quvvatlashni qo‘yadi. Tizimning texnologik realizatsiyasi esa didaktik maqsadlarga bo‘ysundirilgan instrumental platforma vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zi-tekshiruvchi tizimlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanib amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasi**” ga bag‘ishlanib, unda Amaliy mashg‘ulotlarni tahlil etish metodlari va tekshirish jarayonining didaktik mexanizmlari, o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanib o‘quv jarayonini modellashtirish hamda ulardan dasturlashga oid fanlarni o‘qitishda foydalanish metodikasi yoritiladi.

Raqamli ta’lim muhitining pedagogik modeli va o‘zi-tekshiruvchi tizimlarning o‘nta didaktik tamoyili negizida dasturlashga oid amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishning yaxlit pedagogik-metodik modeli ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ladi. Mazkur model o‘zi-tekshiruvchi tizimni avtomatik baholash quroli sifatida emas, balki amaliy mashg‘ulotning to‘liq didaktik siklini - maqsad qo‘yish, faoliyat, nazorat, shakllantiruvchi teskari aloqa, refleksiya va korreksiya bosqichlarini boshqaruvchi metodik mexanizm sifatida talqin qiladi. Taklif etilayotgan “pedagogik-metodik model” tushunchasi esa tizimni boshqa nuqtai nazardan uning didaktik komponentlari, pedagogik vazifalari va o‘qitish metodikasi bilan integratsiyalashuvi jihatdan talqin qiladi. Mazkur model texnologik realizatsiyani inkor etmaydi, balki uni didaktik maqsadlarga bo‘ysundiradi va pedagogik samaradorlikni asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Didaktik tahlil va tekshirish metodlarining yaxlit pedagogik mexanizmi 1-rasmda ko‘rsatilgan funksional-mantiqiy sxema orqali ifodalanadi. Sxema talabaning amaliy yechimi qabul qilingan paytdan boshlab to yakuniy pedagogik teskari aloqa taqdim etilguncha bo‘lgan butun didaktik diagnostika jarayonini qamrab oladi va har bir bosqichning pedagogik vazifasini hamda bosqichlar o‘rtasidagi didaktik bog‘liqlikni aks ettiradi.




1-rasm. Amaliy mashg‘ulotlarni tahlil etish va tekshirish jarayonining didaktik mexanizmi (ko‘p bosqichli pedagogik diagnostika sxemasi)

Mazkur didaktik mexanizm Moodle ta’lim platformasiga integratsiyalangan holda amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish metodikasining muhim tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga ushbu bobda o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanib o‘quv jarayoni modelini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilib, raqamli muhitda o‘quv jarayonini modellashtirish an’anaviy yondashuvdan sifat jihatdan farqlanishi asoslanib berildi. Model statik emas, balki talabaning o‘zlashtirish dinamikasi, xatolar profili va kognitiv yuklamasi bilan o‘zaro ta’sirda doimiy takomillashib boruvchi dinamik tuzilma sifatida qaraladi. Ishda taklif etilayotgan o‘zi-tekshiruvchi tizim ishtirokidagi o‘quv jarayoni model uchta asosiy blokdan iborat bo‘lib, ular texnologik uzluksizlik tamoyili asosida o‘zaro bog‘langan yagona dinamik tizim sifatida ishlaydi.

Modeldagi maqsad bloki o‘quv jarayonining yo‘nalishini belgilaydi. Har bir o‘quv natijasi kognitiv darajalar - bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, baholash va yaratish kabilar orqali tasniflanib, o‘lchanadigan va tekshirilishi mumkin bo‘lgan mezonlarga aylantiriladi. Intellektual adaptatsiya tamoyili asosida o‘quv mazmuni talabaning real vaqtdagi xatolar profili va o‘zlashtirish dinamikasiga qarab moslashtiriladi. Empirik tadqiqotlar adaptiv mazmun tanlash algoritmlarining talabalar o‘rtasidagi o‘zlashtirish tafovutini 28 foizga kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatgan. Mazmunli-tashkiliy komponent o‘quv jarayonining protsessual jihatini belgilaydi. Shakl, usul, vosita va tashkiliy mexanizmlar komponenti o‘zaro uyg‘unlashgan holda ishlaydi. Aralash ta’lim asosida auditoriya vaqti chuqur muhokamaga, mustaqil ishlash vaqti esa o‘zi-tekshiruvchi tizim bilan bevosita ishga yo‘naltiriladi.




2-rasm. O‘zi-tekshiruvchi tizim ishtirokidagi o‘quv jarayoni metodik modeli.

Pedagogik individuallashtirish tamoyili asosida o‘quv jarayonining shakl, usul va vositalari har bir talabaning o‘zlashtirish tezligi, kognitiv uslubi, motivatsiya darajasi va xatolar profili bilan real vaqtda muvofiqlashtirilib boriladi. Adaptiv tizimdan foydalanilgan guruhlarda talabalarning baholashga nisbatan xavotiri sezilarli darajada kamayishi aniqlangan. Natijaviy komponent baholash natijasini keyingi o‘qitish siklining boshlang‘ich nuqtasiga aylantiradi. Baholash mezonlari rubrika shaklida ifodalanib, unit-test natijalari, statik tahlil ko‘rsatkichlari va semantik o‘xshashlik indekslari bilan formal bog‘lanadi. Kognitiv yuklamani moslashtirish tamoyili asosida teskari aloqa topshiriq yuborilgan zahoti beriladi, baholash mezonlari oldindan aniq taqdim etiladi va bu yondashuv kognitiv yukni keskin kamaytirishi empirik jihatdan tasdiqlangan.

Taklif etilayotgan modelning analoglardan uchta muhim farqli jihati mavjud. Birinchidan, mazmuniy yo‘nalish, topshiriq qiyinlik darajasi, teskari qayta aloqa va kognitiv yuk kabi moslashuvchanlikning to‘rtta parametri bir vaqtda va o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi, bu esa talabaning o‘quv trayektoriyasini real vaqt rejimida dinamik boshqarish imkonini beradi. Ikkinchidan, modelda formativ baholash va o‘qitish jarayoni bir-biridan ajralmas didaktik birlik sifatida loyihalangan bo‘lib, har bir avtomatik tekshiruv natijasi keyingi o‘qitish qadamini belgilovchi pedagogik signal vazifasini bajaradi. Bu yondashuv baholashni o‘quv jarayonining yakunlovchi bosqichi emas, balki uzluksiz didaktik boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etish imkonini beradi. Uchinchidan, model o‘qituvchi rolini texnik funksiyalar bilan almashtirish yoki minimallashtirish maqsadini ko‘zlamaydi. Aksincha, o‘qituvchini muntazam takrorlanadigan texnik tekshiruv yukidan ozod qilib, uning kognitiv va pedagogik resurslarini talabalar bilan chuqur muloqot, individual qo‘llab-quvvatlash va metodik refleksiyaga yo‘naltirish imkonini yaratadi.

Modelda keltirilgan o‘zi-tekshiruvchi tizimning ko‘p qatlamli tahlil jarayoni to‘rtta asosiy analizator - statik tahlil, dinamik tahlil, semantik tahlil va resurs profilingining ketma-ket va parallel ishlashi asosida tashkil etilgan.



3-rasm. ACC 1 plagini: ko‘p vositali chuqur tahlil modeli va diagnostik tavsiyalar generatori

Tadqiqot davomida o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan dasturlashga oid fanlarni o‘qitishda foydalanish metodikasi takomillashtirilgan bo‘lib, dasturlash ta’limining o‘ziga xos epistemologik qiyinliklari, jumladan, bilimning amalda sinab ko‘rilmaguncha to‘liq o‘zlashtirib bo‘lmasligi, xato xabarlarini mustaqil talqin qila olmaslik va katta guruhlarda individual tekshiruvning amalda imkonsiz bo‘lishi o‘zi-tekshiruvchi tizimlarni joriy etishni metodologik zarurat sifatida belgilaydi.

Taklif etilayotgan metodika uchta ilmiy-metodologik tamoyilga tayanadi. Birinchi tamoyil - o‘z-o‘zini boshqaruvchi ta’lim (SDL) bo‘lib, talaba topshiriqni o‘zi tanlab, o‘z vaqtida bajarib, teskari aloqani darhol olib va keyingi qadam haqida o‘zi qaror qabul qilishi orqali SDL ning o‘z-o‘zini boshqarish, monitoring va motivatsiya kabi uch o‘lchami bilan bir vaqtda mashq qilinadi. Ikkinchi tamoyil - muammoli o‘qitish (PBL) bo‘lib o‘zi-tekshiruvchi tizim “muammoni baholaydigan hakam” rolini o‘tab, muvaffaqiyatsiz holatda “qayerda noto‘g‘ri?” emas, “qanday to‘g‘rilayman?” ko‘rinishidagi yo‘naltiruvchi teskari aloqa beradi. Uchinchi tamoyil - algoritmik fikrlashdan iborat. Bunda tizim kodni faqat “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” emas, balki murakkablik darajasi, takrorlanish va samaradorlik nuqtai nazaridan ham baholab, algoritmik fikrlashning texnik mezonlarini talabaga ko‘rinadigan qiladi. Uchala tamoyilning amaliy integratsiyasi muammoni tanishtirish, algoritmik fikrlash, mustaqil kod yozish va o‘zi-tekshiruvchi tizim bilan ishlash kabi to‘rt bosqichli metodik ketma-ketlikda tashkil etildi.

“**O‘zi-tekshiruvchi tizimlar asosida o‘qitish metodikasining samaradorligini tajriba-sinov orqali aniqlash**” deb nomlangan uchinchi bob esa o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish metodikasi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish hamda olingan natijalarni matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilish va qiyosiy baholashga bag‘ishlanadi. Tajriba-sinov ishlari Buxoro, Qarshi, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarida jami 526 nafar talaba ishtirokida nazorat va tajriba guruhlari asosida tashkil etilgan bo‘lib, natijalarining matematik-statistik tahlili, o‘zlashtirish tafovutining kamayishi, teskari aloqaga munosabat faolligining ortishi va o‘z-o‘zini tartibga solish ko‘nikmalarining rivojlanishini ishonchli darajada tasdiqladi.

O‘zi-tekshiruvchi tizimni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning texnik va pedagogik shartlari SAMR modelining almashtirish, kuchaytirish va o‘zgartirish darajalari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. O‘zi-tekshiruvchi tizimlarning ta’lim jarayoniga integratsiyasi ko‘pincha birinchi yoki ikkinchi darajada faqat “elektron tekshiruv varianti” yoki “o‘qituvchi yukini yengillashtiruvchi vosita” sifatida qolishi o‘rtacha xavf sifatida belgilandi. Dissertatsiyada taklif etilayotgan integratsiya shakli SAMR modelining uchinchi darajasiga ya’ni, o‘zgartirish funksiyasiga yo‘naltirilgan bo‘lib, u o‘quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni ko‘zda tutadi.

Integratsiyaning texnik shartlari LMS Moodle platformasining barqarorligi va kengayuvchanligi, katta guruh sharoitida barqarorlik va oflayn/onlayn gibrid rejim kabi uchta asosiy talabdan iborat. Pedagogik shartlar o‘qituvchining metodologik tayorgarligi (“men hamma narsani tekshiraman” paradigmasidan “tizim texnik tekshiradi, men chuqur o‘rgataman” paradigmasiga o‘tish), baholash tizimining

uyg‘unligi va talabalar uchun o‘zi-tekshiruvchi tizimning pedagogik maqsadini aniq tushuntirishdan iborat.

Dasturlashga oid amaliy mashg‘ulotlada o‘zi-tekshiruvchi tizimlardan foydalanish metodikasining samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari tashkil qilinib, natijalarning matematik-statistik tahlili amalga oshirildi. Amaliy mashg‘ulotlarni o‘zi-tekshiruvchi tizim asosida tashkil etishning konseptual va dasturiy arxitekturasi asoslanib, “talaba - o‘qituvchi – ta’limni boshqarish tizimi (LMS) – o‘zi-tekshiruvchi tizim” o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar qatlamli yondashuv asosida modellashtiriladi. Tizim arxitekturasini ishlab chiqishda amaliy topshiriqlarni qabul qilish, navbatga qo‘yish, ko‘p-bosqichli tekshiruvdan o‘tkazish, natijalarni qayta ishlash va saqlash jarayonlari barqarorligi ta’minlandi.


Tadqiqot davomida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlari doirasida nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, an’anaviy baholash usuli qo‘llaniladigan guruhlar bilan o‘zi-tekshiruvchi tizim asosida amaliy topshiriqlarni bajaradigan guruhlar taqqoslanadi. Tajribada ishtirok etgan talabalar soni, ularning tayyorgarlik darajasi, fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarning hajmi, topshiriqlar turi va murakkablik darajasi kabi omillar inobatga olindi.

Amaliy mashg‘ulotlarda o‘zi tekshiruvchi tizimni qo‘llash samaradorligining matematik-statistik tahlili amalga oshirilib, bunda talabalarning joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar bo‘yicha ballari hamda topshiriqlarni birinchi urinishda muvaffaqiyatli bajarish ulushi, qayta topshirishlar soni, topshiriqlarni bajarish va tekshirishga ketgan vaqt ko‘rsatkichlari inobatga olindi. Natijalar Student (t-test) mezoni asosida qayta ishlanib, xulosalar chiqarildi. Nazorat va tajriba guruhlari ko‘rsatkichlari orasidagi farqlar statistik ahamiyatlilik nuqtai nazaridan baholanib, o‘quv natijalari dinamikasining o‘zgarishi grafik va jadval ko‘rinishida talqin qilindi.

1-jadval

Tajriba-sinov ishlari olib borilgan oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar

Oliy ta’lim muassasasi nomi	Ko‘rsat-kichi	Tajriba-sinov guruhlari				Nazorat guruhlari			
		Tajriba boshida o‘quvchi soni	%	Tajriba oxirida o‘quvchi soni	%	Tajriba boshida o‘quvchi soni	%	Tajriba oxirida o‘quvchi soni	%
Tajriba-sinovda ishtirok etgan barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha	A’lo	47	17,9	79	30,0	40	15,2	41	15,6
	Yaxshi	87	33,1	135	51,4	84	31,9	99	37,6
	Qoniqarli	107	40,7	40	15,2	120	45,6	112	42,6
	Qoniqarsiz	22	8,4	9	3,4	19	7,2	11	4,2



4-rasm. Tajriba-sinovda ishtirok etgan barcha OTMlar sinov natijalari diagrammasi.

2-jadval

Tadqiqot davomida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari tahlilining umumiy natijasi

№	Ko‘rsatkichlar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		Tajriba boshida	Tajriba oxirida	Tajriba boshida	Tajriba oxirida
1	O‘rtacha arifmetik qiymat (x,y)	3,44	4,02	3,41	3,55
2	Samaradorlik ko‘rsatkichi ɳ	1,13		1,01	
3	O‘rtacha qiymat ishonch oralig‘i a_x, a_y	[3,22; 3,74]	[3,7; 4,33]	[3,14; 3,48]	[3,2; 3,9]
4	O‘rtacha qiymat standart xatolik (Sx, Sy)	0,79	0,67	0,75	0,73
5	Aniqlanish ko‘rsatkichi (Cx, Cy)	1,42	1,03	1,36	1,27
6	Styudent statistikasi (T)	7,7 > 1,96		0,44 < 1,96	
7	Ko‘rsatkichlar xulosasi	H_1 gipoteza qabul qilinadi.			

Shunday qilib, mualliflik metodikasi asosida dasturlashga oid fanlarda amaliy mashg‘ulot topshiriqlarini o‘zi-tekshiruvchi tizimdan foydalanib o‘qitish bo‘yicha samaradorlikni aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari statistik tahlildan ma’lum bo‘ldiki, barcha oliy ta’lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari nihoyasida, tajriba guruhidagi o‘quvchilarining bilim darajasi nazorat guruhiga nisbatan 1,13

(13%) yuqori koʻrsatkichga ega boʻldi. Bu esa olib borilgan tadqiqot ishining samarador ekanligini koʻrsatadi.

XULOSALAR

“Raqamli ta’lim muhitida amaliy mashgʻulotlarni oʻzi-tekshiruvchi tizimlar asosida tashkil etish va oʻqitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi dissertatsiya ishi natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1.Raqamli ta’lim muhitida oʻzi-tekshiruvchi tizimlar yordamida amaliy mashgʻulotlarni tashkil etishning metodik modeli talaba bilan pedagogik oʻzaro ta’sir muhiti, diagnostik-shakllantiruvchi baholash, pedagogik qoʻllab-quvvatlash hamda ta’lim analitikasi va oʻzlashtirishni monitoring qilish modullaridan iborat yaxlit tizim ishlab chiqildi va u didaktik tamoyillar tizimi negizida nazariy-pedagogik jihatdan asoslandi. Natijada talabaning individual oʻzlashtirish darajasi va xatolar profiliga moslashuvchan didaktik diagnostika mexanizmi shakllantirilib, teskari aloqa bosqichlari pedagogik individuallashtirish tamoyili bilan uygʻunlashtirildi hamda katta guruhlar sharoitida ham har bir talabaga moslashtirilgan didaktik oʻquv trayektoriyasini ta’minlash imkoni yaratildi.

